ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№8
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 286 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi ........ 14
**Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna**

O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari ........ 20
**Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li**

Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi ........ 25
**Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi ........ 30
**Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi**

Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati ........ 33
**Eshmuminova Oybarchin Botirovna**

Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv ........ 39
**Isayeva Mushtariy Alisher qizi**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari ........ 44
**Maydonova Saboxat Sadulloyevna**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari ........ 48
**Mingbayeva Barno Ubaydullayevna**

Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies ........ 52
**Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna**

Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari ........ 55
**Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi**

"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida ........ 59
**Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna**

O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni ........ 65
**Umarova Feruzabonu Bobir qizi**

Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri ........ 68
**Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich**

O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari ........ 72
**Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li**

Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida ........ 76
**Boypolvonov Barot Djonqobulovich**

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini ........ 81
**Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi**

O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari ........ 86
**Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li**

Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri ........ 90
**Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna**

Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish ........ 96
**Koshayeva Sansabila Kamiljanovna**

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni ........ 100
**Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati ........ 105
**Murodova Madina Karim qizi**

Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari ........ 108
**Ortiqov Mironshoh Sodiqovich**

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish....110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna

O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari....115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna

Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika ....120
Sidiqova Yulduz Sobirovna

6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi ....123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi

Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ....128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich

Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish....132
F. Zaynabuddinov

Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза ....135
Киреева Эльвина Фларитовна

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar ....140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich

Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish ....144
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna

Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari ....148
Davletova A.

Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari ....152
G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi

Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish .156
Madmarova Gulchexra Qodirovna

O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish ....160
Mamajonov Mo'minjon

Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli ....165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi

Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari....169
Muhiddinov Muhriddin Nuriddin o'g'li

Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati....173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna

Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning o'yin ampluasini hisobga olgan holda aniqlash usullari ....178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi

PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish....184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi

Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari ....188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich

Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari ....192
Rasulova Nozigul Abdivahid qizi

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish....196
Sharofova Nilufar Ilhom qizi

Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida) ....200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna

Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari....204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari ............208
Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi

Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili ............214
Zarina Itolmasova

Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar............219
Hasanova Sumanbar Hamroqulovna

Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов............222
Мамадалиева Зарина

Abduqodir Shakuriyning ta'lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil ............226
Ashurova Dilrabo Isroil qizi

Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..230
Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi

Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar............233
G. S. Kaxarova

Umumta'lim maktablarida informatika o'qitish asosida ta'limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...236
Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich

Shaxsda ma'naviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri............240
Mirxoliqova Charos Xabibullayevna

O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv ............244
Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna

Ismlarning ma'noliligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar............252
Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich

Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari uslubiyati............258
Shaxriddinova Laylo Nurxonovna

Raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari ............262
Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li

Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar............268
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi

Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari............272
Xujanazarova Nozima Omonjonovna

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy metodologik asoslari ............275
Axmedov Nodir Sadir o'g'li

Talaba-yoshlarda qo'shiq ijrochilik san'atini shakllantirishning zamonaviy pedagogik xususiyatlari: ta'lim islohotlari kontekstida yondashuv............279
Begisbay Temirbayev

Xorijiy davlatlarda biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari............283
Hayitov Abdirasul Eshdavlatovich

# YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ILMIY METODOLOGIK ASOSLARI

Axmedov Nodir Sadir o'g'li
Toshkent shahar, Uchtepa tumani, 14-sonli umumta'lim maktabi,
Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy-metodologik asoslari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va amaliy usullar tahlil qilingan. Tadqiqotda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining kognitiv, emotsional va faoliyat komponentlari, tizimli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada ta'lim muassasalari, oila, yoshlar tashkilotlari va jamiyatning harbiy vatanparvarlik tarbiyasidagi roli baholanib, tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish yo'llari tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** harbiy vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, pedagogik metodologiya, kognitiv komponent, emotsional tarbiya, faoliyat yondashuvi, tizimli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, raqamli texnologiyalar, virtual reallik, tarbiyaviy jarayon, milliy qadriyatlar, fuqarolik tarbiyasi, ijtimoiy mas'uliyat.

**Abstract:** This article analyzes the scientific and methodological foundations of military-patriotic education of youth, modern pedagogical approaches, and practical methods. The research examines the cognitive, emotional, and activity components of military-patriotic education, systematic and personality-oriented approaches, as well as the possibilities of modern digital technologies. The article evaluates the role of educational institutions, family, youth organizations, and society in military-patriotic education and recommends ways to effectively organize the educational process.

**Key words:** military-patriotic education, youth education, pedagogical methodology, cognitive component, emotional education, activity approach, systematic approach, personality-oriented education, digital technologies, virtual reality, educational process, national values, civic education, social responsibility.

**Аннотация:** В данной статье анализируются научно-методологические основы военно-патриотического воспитания молодежи, современные педагогические подходы и практические методы. В исследовании рассматриваются когнитивный, эмоциональный и деятельностный компоненты военно-патриотического воспитания, системный и личностно-ориентированный подходы, а также возможности современных цифровых технологий. В статье оценивается роль образовательных учреждений, семьи, молодежных организаций и общества в военно-патриотическом воспитании, рекомендуются пути эффективной организации воспитательного процесса.

**Ключевые слова:** военно-патриотическое воспитание, воспитание молодежи, педагогическая методология, когнитивный компонент, эмоциональное воспитание, деятельностный подход, системный подход, личностно-ориентированное образование, цифровые технологии, виртуальная реальность, воспитательный процесс, национальные ценности, гражданское воспитание, социальная ответственность.

## KIRISH

Zamonaviy jamiyat rivojlanishida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim o'rin tutadi va bu masala bugungi kunda barcha rivojlangan davlatlarning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash va kelajak avlodni vatanparvar ruhda shakllantirish davlatning strategik vazifalaridan biridir. XXI asrda geosiyosiy kuchlanishlar, xavfsizlik tahdidlari va madaniy assimilyatsiya jarayonlari kuchaygan bir davrda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari, amaliy metodlari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarning o'z Vataniga nisbatan mas'uliyat hissini rivojlantirish, harbiy xizmatga tayyorlash va milliy xavfsizlik masalalarida faol ishtirok etish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. Bu tushuncha zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, uning nazariy-metodologik asoslari bir qator ilmiy tadqiqotlarda ishlab chiqilgan. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi oddiy-gina harbiy ko'nikmalarni o'rgatishdan farqli ravishda, shaxsning ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirish, milliy manfaatlarni himoya qilish g'oyalarini singdirish va fuqarolik fazilatlari tizimini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bu tarbiya turi uch asosiy komponentni o'z ichiga oladi, ularning har biri alohida ahamiyatga ega va bir-biri bilan uzviy bog'langan:

Kognitiv komponent – tarixiy bilimlar, harbiy fan asoslari, davlat ramzlari va an'analarini o'rganishni nazarda tutadi. Bu doirada yoshlar o'z xalqining qahramonlik tarixini, urush davridagi vatanparvarlik namunalarini, davlat qurilishi asoslarini, konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarni chuqur o'zlashtirishlari lozim. Kognitiv komponent, shuningdek, zamonaviy geosiyosiy vaziyat, xalqaro munosabatlar, harbiy strategiya va taktika asoslari, davlat xavfsizligi konsepsiyalari va milliy himoya tizimi haqidagi bilimlarni qamrab oladi.

**Emotsional komponent** – Vatanga muhabbat, g'urur hissi va milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu orqali yoshlarda chuqur hissiy bog'liqlik shakllanadi. Bu shaxsning qiymat-qadriyatlar tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va yoshlarning ruhiy-ma'naviy dunyosini boyitadi. Emotsional jihatdan shakllangan vatanparvarlik yoshlarning xatti-harakatlarini boshqaruvchi omil bo'lib, ularni ijobiy ijtimoiy faoliyatga undaydi.

**Faoliyat komponenti** – nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantiradi va harbiy mashqlar, sport tadbirlari, ijtimoiy faollik, ko'ngillilik harakatlari hamda fuqarolik tashabbuskorligi orqali amalga oshiriladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasini tizimli yondashuv asosida tashkil etish zarurati zamonaviy pedagogika fani tomonidan to'liq asoslab berilgan. Bu yondashuv uzluksizlik prinsipini qo'llash orqali tarbiyaviy jarayonning barcha ta'lim bosqichlarida – maktabgacha tarbiyadan boshlab oliy ta'limgacha – davom etishini ta'minlaydi. Uzluksizlik prinsipi tarbiyaviy ta'sirning muntazamligi, ketma-ketligi va progressivligini nazarda tutadi. Komp-lekslik prinsipi esa turli tarbiyaviy usul va vositalardan foydalanishni ko'zda tutadi, chunki birgina usul yoki vosita yordamida to'liq natijaga erishish mumkin emas. Ushbu prinsipi amalga oshirishda ta'lim muassasalari, oila, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va davlat organlari o'rtasida uzviy hamkorlik zarur. Differen-siatsiya prinsipi yoshlar guruhlarining individual xususiyatlarini, psixologik rivojlanish darajalarini, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Faollik prinsipi esa yoshlarning tarbiyaviy jarayonda faol ishtirokini ta'minlaydi va ularni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko'rishni nazarda tutadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv har bir yoshning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy dasturlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi va bu zamonaviy ta'lim tizimining asosiy talablaridan biri hisobla-nadi. Bu yondashuv shaxsiy qobiliyatlar va qiziqishlarni aniqlash, individual rivojlanish yo'nalishlarini belgilash, muvaffaqiyat ko'rsatkichlarini baholash hamda tarbiyaviy strategiyalarni moslashtirish imkonini beradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, shuningdek, yoshlarning o'ziga ishonchini oshirish, ijodiy potentsialini rivojlantirish va shaxsiy mas'uliyat hissini shakllantirish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu yondashuv davomida har bir yosh o'zining noyob imkoniyatlari va qobiliyatlari orqali Vatanga xizmat qilish yo'llarini topadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Amaliy jihatdan harbiy vatanparvarlik tarbiyasida turli xil ta'limiy va tarbiyaviy metodlardan foydalaniladi, ularning har biri o'zining o'rni va ahamiyatiga ega. Narrativ usuli qahramonlik voqealari va tarixiy shaxslar haqida hikoyalar orqali tarbiyalashni nazarda tutadi va yoshlarda namuna olish hamda taqlid qilish instink-tini faollashtiradi. Bu usul qo'llanilganda alohida e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihat – hikoyalarning haqiqatga asoslanganligi, emotsional ta'sirchanligi va yoshlarning yosh xususiyatlariga moslashtirilganligidir. Loyiha usuli harbiy tarix, davlat ramzlari va milliy an'analar bo'yicha tadqiqot loyihalarini amalga oshirish orqali mustaqil izla-nish va ijodiy faoliyatni rag'batlantiradi. Bu usul yoshlarga mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish va o'z nuqtayi nazarini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Simulyatsiya usuli harbiy vaziyatlarni modellashtirish va takrorlash orqali amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi hamda yoshlarga real sharoitlarga yaqin muhitda tajriba olish imkoniyatini beradi.

Tarbiyaviy metodlar orasida namuna ko'rsatish usuli alohida o'rin tutadi. Bu usul harbiy xizmatchilar va veteranlar bilan uchrashuvlar tashkil etish orqali real hayotiy namunalar asosida ta'sir ko'rsatadi. Bu metodning samaradorligi shundaki, yoshlar nazariy ma'lumotlar bilan bir qatorda real insonlarning hayotiy tajribasini eshitadilar va ulardagi qahramonlik fazilatlarini bevosita kuzatadilar. Kollektiv faoliyat usuli jamoaviy harbiy mashqlar, sport musobaqalari va ijtimoiy loyihalar orqali hamkorlik ruhini rivojlantiradi. Bu usul yoshlarda jamoa ruhini shakllantirish, bir-biriga yordam berish, birgalikda maqsadga erishish va mas'uliyatni taqsimlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Marosim va an'ana usuli milliy bayramlar, xotira kunlari va rasmiy tadbirlar orqali vatanparvarlik hissini mustahkamlaydi hamda yoshlarda davlatga nisbatan hurmat va g'urur tuyg'usini kuchaytiradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar harbiy vatanparvarlik tarbiyasida yangi imkoniyatlar yaratadi va bu sohadagi inqilobiy o'zgarishlar ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Virtual reallik texnologiyalari orqali tarixiy voqealarni virtual muhitda boshdan kechirish imkoniyati yaratiladi va bu usul ayniqsa harbiy operatsiyalar hamda qahramonlik namunalarini ko'rsatishda samarali. VR texnologiyalari yordamida yoshlar Ikkinchi jahon urushi davridagi muhim janglarni, qahramonlarning hayoti va faoliyatini, tarixiy voqealarni go'yo o'zlari ishtirok etayotgandek his qilishlari mumkin. Augmented reality texnologiyalari yordamida muzeylarda va tarixiy joylarda interfaol ekskursiyalar tashkil etish mumkin, bu esa an'anaviy ekskursiyalarni yanada qiziqarli va ta'sirchan qiladi. Mobil ilovalar orqali harbiy bilim va ko'nikmalarni o'rganish, testlar yechish hamda o'z-o'zini baholash imkoniyati yaratiladi, bu esa ta'lim jarayonini yanada qulay va moslashuvchan qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali vatanparvarlik g'oyalarini tarqatish va yoshlar o'rtasida muhokama platformalarini yaratish imkoniyati mavjud bo'lib, bu tarbiyaviy ta'sirni kengaytirish va chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini baholash uchun bir qator ko'rsatkichlardan foydalanish lozim bo'lib, bu baholash tizimi tarbiyaviy jarayonning sifatini nazorat qilish va uni takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bilim darajasi – harbiy tarix, davlat tuzilishi va xavfsizlik masalalari bo'yicha bilimlarni baholashni o'z ichiga oladi. Bu yerda faqat faktlarni eslab qolish emas, balki ularni tahlil qilish va amaliy qo'llash qobiliyati ham hisobga olinadi. Ko'nikma darajasi – harbiy mashqlar va amaliy faoliyatdagi natijalarni o'lchaydi, shu jumladan jismoniy tayyorgarlik, harbiy-texnik bilimlar va amaliy vazifalarni bajarish qobiliyatini baholaydi. Munosabat darajasi – Vatanga, davlatga va harbiy xizmatga nisbatan munosabatni aniqlaydi va bu eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi, chunki bilim va ko'nikmalar munosabatsiz samarasiz bo'ladi. Faollik darajasi esa vatanparvarlik tadbirlarida ishtirok faolligini kuzatishni nazarda tutadi va yoshlarning o'z ixtiyori bilan tarbiyaviy tadbirlarda qatnashishini baholaydi.

Oila harbiy vatanparvarlik tarbiyasida asosiy va boshlang'ich pog'ona bo'lib, bolaning birinchi tarbiyachilari ota-onalar hisoblanadi. Oiladagi tarbiyaviy muhit, ota-onalarning o'zlari namuna ko'rsatishlari, ularning Vatanga bo'lgan munosabati va milliy qadriyatlarga hurmat darajasi bolaning kelajakdagi vatanparvarlik dunyoqarashini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oilaviy an'analar, milliy bayramlarni nishonlash, qahramonlar haqida hikoyalar qilish va tarixiy xotira joylarini ziyorat qilish kabi faoliyat turlari bolaning ongida chuqur iz qoldiradi. Ta'lim muassasalari harbiy vatanparvarlik tarbiyasining tizimli va dasturli ravishda amalga oshiriladigan asosiy joylari hisoblanadi. Maktabdan tortib oliy ta'lim muassasalarigacha bo'lgan barcha bosqichlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi o'z o'rniga ega. Maktab yoshidagi bolalar uchun bu tarbiya asosan o'yin usullari, sport mashqlari, san'at darslari va tarbiyaviy tadbirlar orqali amalga oshiriladi. O'rta maktab o'quvchilari uchun tarix, adabiyot, fuqarolik fanlari kabi darslar orqali bilim beriladi. Oliy ta'lim muassasalarida esa harbiy kafedralar faoliyat yuritib, talabalarni harbiy xizmatga tayyorlaydi. Yoshlar tashkilotlari va jamiyat birlashmalari harbiy vatanparvarlik tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Bu tashkilotlar yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularga amaliy tajriba olish imkoniyatini berish va tengdoshlari bilan muloqot qilish platformasini taqdim etadi. Skaut harakati, harbiy-vatanparvarlik klublari, tarixiy jamiyatlar va sportga oid tashkilotlar yoshlarni faol ijtimoiy hayotga jalb qilish va ularda liderlik sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ommaviy axborot vositalari zamonaviy dunyoda harbiy vatanparvarlik tarbiyasida katta ta'sirga ega bo'lib, televizion dasturlar, radio eshittirishlar, matbuot nashrlari va internet resurslari orqali keng ommaga ta'sir ko'rsatadi. Medianing rolini to'g'ri yo'naltirish va sifatli kontent yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Davlat siyosati va qonunchilik bazasi harbiy vatanparvarlik tarbiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zaruriy shart bo'lib, davlat tomonidan qabul qilingan dastur va qonunlar bu sohadagi faoliyatning huquqiy asosini tashkil etadi. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish ham muhim omil bo'lib, boshqa davlatlarning ijobiy tajribalarini o'rganish va ularni milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda qo'llash imkonini beradi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Bu jarayonning muvaffaqiyati ilmiy asoslangan metodologiya, zamonaviy texnologiyalar va tizimli yondashuvga bog'liq. Kognitiv, emotsional va faoliyat komponentlarining uyg'unligi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va uzluksiz baholash tizimi orqali samarali tarbiyaviy tizim yaratish mumkin. Kelajakda bu sohadagi tadqiqotlarni davom ettirish, yangi metodlar ishlab chiqish va xalqaro tajribalarni o'rganish zarur. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikning asosiy omili sifatida davlat va jamiyat tomonidan doimiy e'tibor va qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Bu jarayon nafaqat harbiy-texnik ko'nikmalarni rivojlantirishni, balki keng ma'noda fuqarolik ongini, ijtimoiy mas'uliyat hissini va milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Азаров, Ю.П. Искусство воспитывать: книга для учителя / Ю.П. Азаров. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Просвещение, 1985. – 448 с.
2. Беспалько, В.П. Слагаемые педагогической технологии / В.П. Беспалько. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
3. Гасанов, З.Т. Цель, задачи и принципы патриотического воспитания граждан / З.Т. Гасанов // Педагогика. – 2005. – № 6. – С. 59-63.
4. Мирзиёев, Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 567 б.
5. Сластенин, В.А. Педагогика: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, Е.Н. Шиянов; под ред. В.А. Сластенина. – М.: Издательский центр "Академия", 2002. – 576 с.
6. Турдиев, Н.С. Ёшларни ватанпарварлик рухида тарбиялашнинг педагогик асослари / Н.С. Турдиев. – Тошкент: Фан, 2020. – 224 б.
7. Хашимова, М.К. Миллий тарбия – миллий истиқлол пойдевори / М.К. Хашимова // Халқ таълими. – 2019. – № 3. – Б. 15-22.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №8**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.